MILLIY IQTISODIYOT INNOVATSION SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA JAHON TAJRIBALARI.....	994
Samadqulov Muhammadjon Islom o'g'li	
HUDUDIIY RIVOJLANISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING AHOLI DAROMADLAR DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	998
Olimjon Fattoyev G'ayrat o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY SHAROITLARDI RAQOBATBARDOSHLIGI: NAZARIY JIHATLARI VA AMALIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI	1002
Adizov Bobir Baxtiyorovich	
ZAMONAVIY SHAROITDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RISKLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1005
Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, Nasritdinov Bekzod Xusnutdinovich	
NAMANGAN VILOYATIDA QURILISH KLASHTERINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI VA ISTIQBOLLI MANBALARI.....	1011
Abduraxmanov Muxtorali Abduvoxidovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	1016
Авезова Шахноза Махмуджановна	
MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR KO'RSATADIGAN OMILLAR.....	1022
Obilov Mirkomil Rashidovich	



“O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING MADANIY IDENTIKLIKKA TA’SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL”	1028
Alijonova Nargiza Rashidjon qizi	
STATISTICAL ANALYSIS OF CREDIT INTEREST RATES.....	1034
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODLARI VA SAMARALI TA‘MINOT ZANJIRI MODEL.....	1037
Olimova Bahora Shuxratovna	
INNOVASION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHINING NAZARIY JIHATLARI.....	1042
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA FOIZ SIYOSATI VA UNING AMALIY JIHATLARI.....	1047
Axmedova Dilafro‘z Elshodovna	
B2BDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR.....	1053
Abdubotirova Madinaxon	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННО - ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ.....	1059
Баходирова Хилола Баходировна	
RAQOBATBARDOSH MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH.....	1063
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Abdurazakova Diyora	
ENERGIYA XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARASI.....	1070
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE BANKING SERVICES IN THE CONTEXT OF BANKING TRANSFORMATION	1075
Jabborov Bahriddin Rashidovich	
MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI.....	1079
G‘ofurov Iskandar Abduraxmonovich	
BANKLARNING INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	1084
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MA’LUMOTLAR BAZASINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI AHAMIYATI.....	1090
Maxamadiyev M. M.	
УСТОЙЧИВОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ: АНАЛИЗ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ АКИБ «ИПОТЕКА-БАНК» ПОСЛЕ ВХОЖДЕНИЯ В ОТП GROUP.....	1095
Каримова Нуржахон Олим кизи	
O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA XORIJLIK TALABALARNI JALB ETISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1101
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O‘RNI	1108
Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1116
Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА – 2025.....	1122
Ш.К.Жалилов	
“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI”	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1130
Xusanov Durbek Nishanovich	
TURIZM XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNI INNOVATSION TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	1138
Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TURISTIK INFRATUZILMANI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI.....	1143
Xalmirzayev Axmadjan Axunovich, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	1149
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	
MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1156
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1161
Adashev Azimjon Urinboyevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1165
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA BOSHQARUV HISOBİ AXBOROTINING AHAMIYATI	1170
Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI VA ULARNING TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDAGI AHAMIYATI.....	1177
Ismoilova Feruza Kubaymurodovna	
EKOMARKETING STRATEGIYALARI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH	1182
Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li	
ENSURING INNOVATIVE ECONOMIC SECURITY IN THE KHOREZM REGION: WASTE RECYCLING AND CIRCULAR ECONOMY	1186
Madraximova Shohista Bahrom qizi	
KICHIK BIZNES FAOLIYATINI BAHOLASH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1191
Mavkulov Ravshan Nematjonovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLOM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH.....	1195
Sultonov Baxtiyor Baxodirovich	
MINTAQAVIY IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1201
Duschanov Alisher Sherzod o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI	1206
Opaev Bysen Aymanovich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI INVESTITSION KREDITLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH.....	1212
Yuldashev Fozil Turapovich	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJIRIBASI.....	1218
M.M.Muminova	
ИНТЕГРАЦИОННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ОПЕРАТОРА И ПРЕДПРИЯТИЙ МЕСТНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1223
Худаярова Мехрангиз Мурадовна	
TURIZMDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN XIZMATLAR KONSEPSIYASI VA TAJRIBA TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI.....	1230
Raxmatov Aziz Tolipovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK EKSTERNALIYALARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1235
Smaylova Zarafshan	
XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1239
Abdunazarov Dilshoda Akromovna	



METALLURGIYA SANOATIDA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: MAQSADGA MUVOFIQLIGI VA NATIJALARI	1244
Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich	
HUDUDIIY IQTISODIY O'SISH OMILLARINING EKONOMETRIK TAHLILI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA	1248
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
INDUSTRIAL RIVOJLANISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK OQIBATLARI	1258
Ataniyazova M.B.	
OLIY TA'LIM RAQOBATBARDOSHLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI	1263
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ЭЛЕМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ «ЗЕЛЕНОЙ» ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1269
Махмудходжаева Луиза Сайфуллоевна	
IQTISODIYOTDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI	1274
Risqibekova Nozimaxon	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN BOOSTING TOURISM-RELATED BUSINESSES	1280
Farrukh Mamadiyrov Shukhratovich	
MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI	1284
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich	
MAJOR INFLATIONARY FACTORS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN AND ANTI-INFLATION POLICIES	1290
Koshanov Abdimurat Azat uli, Oralbaeva Diana Mukhit qizi	
ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА СОВРЕМЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: МОДЕЛИ, МЕХАНИЗМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	1296
Бекова Азиза Алимовна	
SOLIQ MAJBURIYATLARINI HISOBGA OLISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1301
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOIIY ROLI	1308
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
MINTAQAVIIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	1314
Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI	1320
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH	1326
Olimjonov Firdavs	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI	1332
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li	
OILAVIIY MUHITDA QIZLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA)	1336
Qayimova Maftuna Tursunovna	
«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR	1340
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI	1353
Abduvoxidova N.G., Karimova A.M.	
ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIIY MECHANIZMLARI	1359
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI	1365
Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich	
O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1372
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	
INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	1379
Gafurov Ma'ruf Xakimovich	



INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA TAMOYILLARI

Gafurov Ma'ruf Xakimovich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
“Mintaqaviy va korporativ strategiyalar” kafedrası assistenti

Annotatsiya. Mazkur ilmiy-tahliliy maqolada innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning iqtisodiy mazmuni va asosiy tamoyillari kompleks yondashuv asosida o'rganilgan. Tadqiqotda innovatsion moliyalashtirishning nazariy asoslari, uning ko'p manbali xususiyati hamda davlat, xususiy sektor va muqobil moliyalashtirish institutlarining o'zaro roli tahlil qilinadi. Shuningdek, innovatsion loyihalarning yuqori risk darajasi va uzoq muddatli investitsiya xususiyatlari moliyalashtirish mexanizmlariga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish va venchur moliyalashtirishni kengaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: innovatsion faoliyat, innovatsion moliyalashtirish, iqtisodiy mazmun, moliyalashtirish tamoyillari, davlat byudjeti, xususiy investitsiyalar, venchur kapital, risklarni boshqarish, innovatsion siyosat, investitsion muhit.

Abstract. This scientific and analytical article examines the economic essence and key principles of financing innovative activity using a comprehensive approach. The study analyzes the theoretical foundations of innovation financing, its multi-source nature, and the roles of the state, private sector, and alternative financing institutions. Particular attention is paid to the high level of risk and long-term investment characteristics of innovative projects and their impact on financing mechanisms. The research findings contribute to developing scientific and practical conclusions aimed at improving innovation financing systems, enhancing public-private partnerships, and expanding venture capital financing.

Key words: innovative activity, innovation financing, economic essence, financing principles, state budget, private investment, venture capital, risk management, innovation policy, investment environment.

Аннотация. В данной научно-аналитической статье комплексно исследованы экономическое содержание и основные принципы финансирования инновационной деятельности. В работе анализируются теоретические основы инновационного финансирования, его многоканальный характер, а также роль государства, частного сектора и альтернативных финансовых институтов. Особое внимание уделено высокой степени риска инновационных проектов и их долгосрочному инвестиционному характеру, влияющим на механизмы финансирования. Полученные результаты способствуют формированию научно-практических выводов по совершенствованию системы финансирования инновационной деятельности и развитию государственно-частного партнерства.

Ключевые слова: инновационная деятельность, инновационное финансирование, экономическое содержание, принципы финансирования, государственный бюджет, частные инвестиции, венчурный капитал, управление рисками, инновационная политика, инвестиционный климат.

KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida innovatsion faoliyat iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ilm-fan yutuqlari, yangi texnologiyalar, raqamli yechimlar va yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish mamlakatlarning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, to'rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4.0), sun'iy intellekt, biotexnologiya va yashil iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalarni joriy etish jarayonlari moliyaviy resurslar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanmoqda. Innovatsion faoliyatning samaradorligi ko'p jihatdan uni moliyalashtirish mexanizmlarining puxta tashkil etilganligi, iqtisodiy mazmunining to'g'ri anglanganligi va asosiy tamoyillarga qat'iy amal qilinishiga bog'liqdir. Innovatsiyalarni moliyalashtirish — bu nafaqat moliyaviy resurslarni jalb qilish jarayoni, balki risklarni boshqarish, investitsion muhitni shakllantirish, davlat va xususiy sektor hamkorligini yo'lga qo'yish hamda intellektual kapitalni iqtisodiy qiymatga aylantirish jarayonidir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion



faoliyat an'anaviy investitsiya loyihalariga nisbatan yuqori noaniqlik va risk darajasiga ega. Shu sababli innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda klassik kreditlash mexanizmlari har doim ham samarali bo'lavermaydi. Bu holat venchur kapital, grantlar, davlat subsidiyalari, biznes farishtalar, startap akseleratorlari va innovatsion fondlar kabi muqobil moliyalashtirish manbalarining shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ham innovatsion rivojlanish strategik ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Mamlakatda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini (ITTKI) qo'llab-quvvatlash, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, texnoparklar va startap ekotizimini kengaytirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimida hali ham ayrim muammolar, jumladan moliyaviy resurslarning cheklanganligi, risklarni baholash mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi va xususiy kapital ishtirokining pastligi kuzatilmoqda. Shu nuqtai nazardan, innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning iqtisodiy mazmunini chuqur ilmiy tahlil qilish, uning asosiy tamoyillarini aniqlash va tizimli yondashuv asosida baholash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqolada innovatsion moliyalashtirishning nazariy asoslari, iqtisodiy mohiyati va amaliy qo'llanilish tamoyillari kompleks tarzda o'rganiladi [1].

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tamoyillarini aniqlash ushbu jarayonning barqarorligini ta'minlash, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va innovatsion natijalarni tijoratlashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi muvozanat, uzoq muddatli investitsion yondashuv va risklarni taqsimlash mexanizmlarining mavjudligi innovatsion rivojlanishning muhim shartlaridan hisoblanadi. Quyidagi jadvalda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning iqtisodiy mazmuni va asosiy tamoyillari umumlashtirilgan holda keltiriladi.

1-jadval. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning iqtisodiy mazmuni va asosiy tamoyillari

Innovatsion moliyalashtirish jihatlari	Iqtisodiy mazmuni	Asosiy tamoyillar
Moliyaviy resurslar manbai	Davlat byudjeti, xususiy investitsiyalar, venchur kapital, grantlar	Diversifikatsiya, barqarorlik
Risk darajasi	Yuqori noaniqlik va uzoq qaytish muddati	Risklarni taqsimlash
Investitsiya muddati	O'rta va uzoq muddatli	Strategik yondashuv
Natijani baholash	Ilmiy va tijorat samaradorligi	Natijadorlik va samaradorlik
Davlat ishtiroki	Qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi rol	Shaffoflik va muvofiqlik
Xususiy sektor roli	Innovatsiyani tijoratlashtirish	Bozor tamoyillari

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish masalalari iqtisodiy nazariya va amaliyotda muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur sohada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosan innovatsiyalarning iqtisodiy mohiyati, ularning moliyaviy ta'minoti, risklarni boshqarish va davlatning rag'batlantiruvchi roli kabi masalalarga qaratilgan. Iqtisodiy nazariyada innovatsion rivojlanish konsepsiyasining asoslari J. Shumpeter tadqiqotlarida chuqur yoritilgan bo'lib, u innovatsiyalarni iqtisodiy taraqqiyotning asosiy manbai sifatida talqin etadi. Uning fikriga ko'ra, yangi mahsulotlar, texnologiyalar va ishlab chiqarish usullarining joriy etilishi kapital harakatining yangi shakllarini talab qiladi. Shumpeter innovatsiyalarni moliyalashtirish jarayonida bank kapitali va investorlarning faol ishtirokini muhim deb hisoblagan. Keyingi tadqiqotlarda (Freeman, Lundvall, Nelson) milliy innovatsion tizim (MIT) konsepsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish davlat, xususiy sektor va ilmiy muassasalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik orqali amalga oshirilishi ta'kidlanadi. Ushbu yondashuv innovatsiyalarni moliyalashtirishni faqat moliyaviy jarayon emas, balki institutsional tizim sifatida ko'rib chiqadi [2].

Venchur moliyalashtirish masalalari Gompers va Lerner tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ularning ilmiy ishlarida yuqori riskli innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda venchur kapitalning o'rni, investor va innovator o'rtasidagi manfaatlar muvozanati hamda moliyaviy nazorat mexanizmlari chuqur tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlar innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda an'anaviy bank kreditlari bilan bir qatorda muqobil moliyaviy instrumentlarning zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

MDH va rivojlanayotgan davlatlar misolida olib borilgan tadqiqotlarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda davlatning yetakchi roli alohida ta'kidlanadi. Jumladan, Rossiya, Qozog'iston va Xitoy iqtisodchilari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion rivojlanishning dastlabki bosqichlarida davlat byudjeti, grantlar va subsidiyalar asosiy moliyalashtirish manbai bo'lib xizmat qiladi [3].




O'zbekiston olimlari (A.A. Abdullayev, B.X. Xudoyberdiyev, D.A. Raxmonov va boshqalar) tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning institutsional asoslari, investitsion muhitni yaxshilash va startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash masalalari yoritilgan. Tadqiqotlarda innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi ta'kidlanadi. Shuningdek, Jahon banki, OECD va UNIDO hisobotlarida innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning zamonaviy tendensiyalari, jumladan davlat-xususiy sheriklik (DXSh), innovatsion fondlar va raqamli moliyalashtirish platformalarining ahamiyati ilmiy-statistik ma'lumotlar asosida ko'rsatib berilgan.

2-jadval. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bo'yicha asosiy ilmiy yondashuvlar tahlili

Muallif	Tadqiqot yo'nalishi	Asosiy g'oya
J. Shumpeter	Innovatsiya nazariyasi	Innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning harakatlantiruvchi kuchi
B. Lundvall	Milliy innovatsion tizim	Davlat–fan–biznes integratsiyasi
Gompers, Lerner	Venchur moliyalashtirish	Yuqori riskli loyihalarni xususiy kapital orqali moliyalashtirish
OECD	Innovatsion siyosat	Davlat rag'batlari va institutsional mexanizmlar
O'zbekiston olimlari	Innovatsion moliyalashtirish	Davlat qo'llab-quvvatlashi va investitsion muhit

2-jadvalda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish masalalariga bag'ishlangan asosiy ilmiy yondashuvlar umumlashtirilgan. Jadvalda keltirilgan mualliflar va xalqaro tashkilotlar tadqiqotlari innovatsion moliyalashtirishning turli nazariy va institutsional jihatlarini yoritib beradi. Xususan, J. Shumpeter tomonidan ilgari surilgan innovatsiya nazariyasi innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning iqtisodiy o'sishdagi asosiy rolini ochib bersa, B. Lundvallning milliy innovatsion tizim konsepsiyasi ushbu jarayonni davlat, fan va biznes subyektlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik doirasida ko'rib chiqadi [4,5]. Shuningdek, Gompers va Lerner tadqiqotlarida yuqori riskli innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda venchur kapitalning ustuvor ahamiyati ilmiy jihatdan asoslangan. OECD va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tahlillar esa innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda davlatning rag'batlantiruvchi siyosati va institutsional mexanizmlarning muhimligini ko'rsatadi. Umuman olganda, jadvalda keltirilgan yondashuvlar innovatsion faoliyatni moliyalashtirish ko'p manbali va tizimli xarakterga ega ekanligini tasdiqlaydi [6].

Quyidagi diagrammada innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalarining umumiy tarkibi aks ettirilgan bo'lib, unda moliyalashtirish jarayonining ko'p manbali xususiyatga ega ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Diagramma davlat, xususiy va muqobil moliyalashtirish manbalari o'rtasidagi nisbatlarni tahlil qilish imkonini beradi hamda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat byudjeti yetakchi o'rin tutishini ko'rsatadi.



1-rasm. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari tarkibi.

Tadqiqot metodologiyasi. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish masalalari bo'yicha olib borilgan adabiyotlar tahlili va diagrammada aks ettirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, mazkur jarayon murakkab, ko'p bosqichli va ko'p manbali iqtisodiy tizim sifatida namoyon bo'ladi. Innovatsion loyihalarning o'ziga xos xususiyati — yuqori risk, uzoq muddatli investitsiya davri va natijaning oldindan aniq prognoz qilinmasligi — ularni moliyalashtirishda an'anaviy yondashuvlarning yetarli emasligini yuzaga chiqaradi [7,8]. Munozara



jarayonida aniqlanishicha, davlat byudjeti innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda yetakchi rol o'ynaydi, bu holat rivojlanayotgan iqtisodiyotlarga xos bo'lgan tendensiya sifatida baholanadi. Diagrammada davlat byudjetining yuqori ulushi innovatsion muhitni shakllantirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash va boshlang'ich bosqichdagi innovatsion loyihalarni rag'batlantirishda davlatning muhim funksiyasini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, faqat davlat mablag'lariga tayanish innovatsion faoliyatning barqaror rivojlanishini cheklashi mumkin [9].

Xususiy investitsiyalarning innovatsion moliyalashtirishdagi ulushi nisbatan pastroq bo'lishi investorlar uchun mavjud risklar, huquqiy kafolatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi va innovatsion loyihalarning tijoratlashtirish mexanizmlarining sustligi bilan izohlanadi. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanganidek, xususiy kapitalning innovatsion jarayonlarga faol jalb etilishi uchun investitsion muhitni yaxshilash, soliq imtiyozlari va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Muqobil moliyalashtirish manbalarining (venchur kapital, biznes farishtalar, startup fondlar) nisbatan kam ulushga ega bo'lishi ushbu institutlarning yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatadi. Biroq rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, aynan venchur moliyalashtirish innovatsion faoliyatning yuqori bosqichlariga o'tishda muhim katalizator vazifasini bajaradi. Shu sababli mazkur moliyalashtirish shakllarini rivojlantirish innovatsion tizimning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [10].

Munozara natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish samaradorligi moliyaviy resurslarning hajmidan ko'ra, ularning taqsimlanish mexanizmlari, risklarni boshqarish darajasi va institutsional muhit bilan chambarchas bog'liqdir. Davlat, xususiy sektor va muqobil moliyalashtirish institutlari o'rtasida muvozanatli hamkorlikni ta'minlash innovatsion rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi. Umuman olganda, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha olib boriladigan islohotlar kompleks yondashuvni talab etadi. Ushbu yondashuv innovatsion siyosat, moliyaviy mexanizmlar va institutsional islohotlarning o'zaro uyg'unligini ta'minlash orqali innovatsion faoliyatning barqaror va samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur ilmiy-tahliliy maqolada innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning iqtisodiy mazmuni va asosiy tamoyillari kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyat iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib, uning samarali moliyalashtirilishi barqaror innovatsion rivojlanishning asosiy sharti hisoblanadi. O'tkazilgan adabiyotlar tahlili innovatsion faoliyatni moliyalashtirish jarayoni ko'p manbali va institutsional xarakterga ega ekanligini tasdiqladi. Davlat byudjeti, xususiy investitsiyalar va muqobil moliyalashtirish manbalarining o'zaro uyg'unligi innovatsion tizim samaradorligini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Diagrammada keltirilgan ma'lumotlar esa rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitida davlatning yetakchi moliyalashtiruvchi sifatidagi rolini yaqqol ko'rsatdi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, innovatsion loyihalarning yuqori risk darajasi va uzoq muddatli qaytish davri xususiy kapitalning innovatsion faoliyatga jalb etilishini cheklovchi asosiy omillardan biridir. Shu bois, innovatsion moliyalashtirish tizimini takomillashtirishda risklarni taqsimlash mexanizmlarini rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik shakllarini kengaytirish va venchur moliyalashtirish institutlarini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish samaradorligi nafaqat jalb etilgan moliyaviy resurslar hajmiga, balki ularning maqsadli taqsimlanishi, natijadorlikka yo'naltirilgan boshqaruv va institutsional muhitning rivojlanganlik darajasiga bog'liq ekanligi aniqlandi. Ushbu jihatlar innovatsion siyosatni ishlab chiqishda ustuvor yo'nalish sifatida inobatga olinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. — Cambridge: Harvard University Press, 1934. — 255 p.
2. Freeman C. The Economics of Industrial Innovation. — London: Penguin Books, 1982. — 278 p.
3. Lundvall B.-Å. National Systems of Innovation: Toward a Theory of Innovation and Interactive Learning. — London: Pinter Publishers, 1992. — 342 p.
4. Nelson R.R. National Innovation Systems: A Comparative Analysis. — New York: Oxford University Press, 1993. — 541 p.
5. Gompers P., Lerner J. The Venture Capital Cycle. — Cambridge: MIT Press, 2004. — 389 p.
6. UNIDO. Industrial Development Report 2022: The Future of Industrialization in a Post-Pandemic World. — Vienna: UNIDO, 2022. — 198 p.
7. Drucker P.F. Innovation and Entrepreneurship. — New York: Harper & Row, 1985. — 277 p.
8. Абдуллаев А.А. Инновацион иқтисодиёт ва уни молиялаштириш механизмлари. — Тошкент: Иқтисод-Молия, 2019. — 184 б.
9. Худойбердиев Б.Х. Инновацион фаолиятни давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг иқтисодий механизмлари // Иқтисодий тараққиёт ва таҳлил. — 2020. — №4. — Б. 45–52.
10. Рахмонов Д.А. Инновацион лойиҳаларни молиялаштиришда давлат-хусусий шерикликнинг ўрни // Молия ва банк иши. — 2021. — №2. — Б. 63–70.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>